



Tadqiqot UZ

2021

ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қараашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



Crossref



CONFERENCES.UZ

31 MART
№26

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 26-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
14 -ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
26-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-14**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
26-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-14**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 26-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 март 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 13 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН

1. Muhammadiyeva Zarina Bahodirovna, Qayimova Sabina Olimovna BOYSUN TUMANINING URF ODATLARI VA AN'ANALARI.....	7
2. Zulpanov Akbar Maxmudovich, Jo'martova Moinur Guzorbek qizi TASVIRIY SAN'AT ORQALI BOLALARDA HUQUQIY SAVODXONLIKNI OSHIRISH	9
3. Jumaboyev Nabi Pardaboyevich, Qayumova Zarnigor Safar qizi TASVIRIY SAN'AT VA UNING TARBIYADA TUTGAN O'RNI	10
4. Jumaboyev Nabi Pardaboyevich, Abdusalomova Shoxsanam Nemat qizi MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA TASVIRIY SAN'ATNING ROLI	12



ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН

BOYSUN TUMANINING URF ODATLARI VA AN'ANALARI

Muhammadiyeva Zarina Bahodirovna

Termiz davlat unversiteti Milliy
 hunarmandchilik va kulolchilik fakulteti
 Amaliy san'at kafedrasи o'qituvchisi.

Qayimova Sabina Olimovna.

Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomchilik va dizayn instituti.
 Milliy va zamonaviy rang tasvir yo'nalishi 1- kurs magistranti

Annotatsiya. Maqolada Boysun hududidagi ko'plab qadimiylar qo'rg'onlarning qoldig'i miloddan avval ham bu hududda aholining madaniyati yuksak bo'lganidan dalolat beradi deb yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: "Boysun" folklor-etnografik, qadimiylar xalq og'zaki, san'atini, urf odalarini, orzu-umidlari.

Surxondaryo viloyatining shimoliy-sharqiy hududidagi Boysuntog' tizmasining yonbag'rida joylashgan Boysun tumani respublikamizning qadimiylar madaniyat o'choqlaridan biri ekanligi arxeologik va yozma tarixiy ma'lumotlar bilan tasdiqlangan. 1939-yilda rus arxeologi Okladnikov tomonidan Boysun tumanining Machay qishlog'idagi Teshiktosh g'oridan bundan 200,0 ming yillar ilgari yashagan Neandertal odam bolasining qoldiq suyaklari topilgani, rus olimi Mixail Mixaylovich Gerasimov tomonidan Neandertal bolaning shakl-shamoyilining tiklanishi bu hududning insoniyatning beshiklaridan biri bo'lganini isbotlaydi. Boysun tumanida 94 000 nafar aholi yashaydi. Boysun tumani hududida yashagan elatlar Markaziy Osiyoda yashagan barcha turkiy xalqlarning tarixiy kechinmalarini o'z boshidan o'tkazgan.

Surxondaryo viloyati Boysun tumani Markaziy madaniyat uyi qoshidagi "Boysun" folklor-etnografik xalq dastasining betakror dasturlarini xalqimiz orziqib kutishi beziz emas. Dastaning iste'dodli a'zolari tomonidan ijro etilgan qo'shiq, kuy va raqslar har bir o'zbekning qalbida aks-sado beradi. Zero, bu dasta ijodkorlari xalqimiz uzoq o'tmishida yaratgan qadimiylar san'at durdonalarini qaytadan tiriltirib, yana xalqimizga taqdim etmoqdalar. Boysun hududi qadimiylar Ipak yo'lining strategik nuqtalaridan biri bo'lgan. Savdo yo'lida joylashgan va bojxona xizmatini o'tagan, tarixda «Temir darvoza» deb nom olgan Darband qishlog'i birgina Baqtriya mamlakatini Movoraunahr bilan emas, balki shimoliy mamlakatlarni Hindiston bilan bog'lab turgan katta karvon yo'llaridan biri bo'lgan.

Tabiiyki, madaniy a'lloqlarning chorrahasida joylashgani uchun bu hududda yashagan aholining madaniy va ma'naviy salohiyati baland bo'lgan. Qadimiylar Boysunda yashagan xalqlarning diniy e'tiqodlari harxil bo'lgan. Bu hududda otashparastlik, zardushtiylik, shomonlik aqidalari uyg'un yashagan. Bu aqidalarning qadimiylar xalq og'zaki ijodiyotiga ta'siri juda katta bo'lgan.

Boysun hududidagi ko'plab qadimiylar qo'rg'onlarning qoldig'i miloddan avval ham bu hududda aholining madaniyati yuksak bo'lganidan dalolat beradi. O'rta Osiyoning arablar tomonidan istilo qilinishi Boysun hududida yashaydigan aholining ham turmushi va e'tiqodiga juda katta ta'sir qildi.

Yozma tarixdan ma'lumki, islomlashtirilayotgan xalqning nomdor san'atkoriulari Baqtriya va Movoraunahr dan bosh olib Sharqiy Turkiston va Xitoy tomonlardan panoh izlab ketganlar. O'z yurtidan ketishga majbur bo'lgan bu buyuk san'atkoriulari Xitoy imperiyasining madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatgani va uning taraqqiyotiga turtki bo'lGANI haqida juda ko'p tarixiy yozma ma'lumotlar mavjud.

O'z yurtidan ketolmagan madaniyat va san'at namoyandalari katta yo'llardan chekarqdada bo'lgan tog'lik hududlarga ko'chib, qishloqlar yaratdilar va bu qishloqlar aholisi o'zining qadimiylar san'atini, urf odalarini imkoniyat darajasida saqlab qolishga harakat qildi. Tog'lik



hududda joylashgan Boysun tumanida yashovchi aholi orasida qadimiy qo'shiqlar, raqslar va urfiy udumlarning saqlanib qolishining asosiy sabablaridan biri shu desak xato qilmaymiz.

Boysunbekligi 1920 - yilgacha Buxoro amirligining janubiy muzofotlaridan biri bo'lgan. Buxoro amirligi Qizil imperiya tomonidan bosib olingach, Boysun rayoni tashkil etiladi. Bu tog'lik hududdagi rayon chorvachilik, dehqonchilik va bog'dorchilikka ixtisoslashtiriladi. Boysun qadimdan o'zining san'ati bilan mashhur bo'lib kelgan. 1929-yilda Boysun tumanidagi san'atkorlar uyushib, Respublikamizda birinchilar qatorida «Ko'k ko'yakchilar» nomli xalq teatri tashkil etganlar. Bu teatr Ikkinci jahon urushi boshlangunga qadar faoliyat ko'rsatgan.

Ikkinci jahon urushi tugagandan keyin, teatrning urushdan omon qaytgan xodimlari Boysun rayon Madaniyat uyi qoshida badiiy havaskorlik to'garagi tashkil qilganlar.

“Boysun” dastasining dasturini tomosha qilgan kishi hech qachon befarq qololmaydi. Chunki ming yillar davomida o'zbvk xalqi yaratgan, vaqtning qattiq sinovidan o'tib san'at durdo-nalariga aylangan kuy, ko'shiq va raqslarning mohirona ijrosini ko'rgan, o'zbek xalqining mashaqqatli mehnat jarayo-nida ham, musibatli kunlarda ham ezzupikni qadrlagani, qalbini nurli orzu-umidlar bilan boyita olganini “Boysun” dastasi ijro etayotgan qo'shiqlar orqali anglab yetgan kishi... befarq qololmaydi-da!

“Boysun” dastasi Afg'oniston, Tojikiston, Qozog'iston Respublikalarida, Rossiyada, Buyuk Britaniya qirolligida, Turkiyada, Fransiyada o'tkazilgan xalqaro festivallarda o'zbek qadimiy san'atini muvaffaqiyatli namoyish etdi. Dastaning ijodi haqida bir qancha filmlar suratga olindi.

Shuni aloxida aytish kerakki - Xalqning san'ati shu xalqning taqdiri bilan bog'liq bo'ladi. Vatanimiz mustaqil bo'lgandan so'ng o'zbek xalqining barcha qadriyatları singari “Boysun” dastasining ijodi ham o'z haqiqiy qadrini topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. G'. G'afurov “Xalq o'yinlari, qo'shiqlar va an'analariga bir nazar” Toshkent. Kamaklak. 1992 yil.
2. T. Mirzaev, B. Sarimsoqov “O'zbek xalq poetik ijodi” Toshkent. O'qituvchi. 1986 yil.
3. O. Ibrohimov “O'zbek xalq musiqa ijodi” Toshkent. O'qituvchi. 1994 yil.



TASVIRIY SAN'AT ORQALI BOLALARDA HUQUQIY SAVODXONLIKNI OSHIRISH

Zulpanov Akbar Maxmudovich

Sardoba tumani 14-maktabning Tasviriy san'at o'qituvchisi,
islomumrzoqov09@gmail.com, +99893 328-87-94

Jo'martova Mohinur Guzorbek qizi

Sardoba tumani 14-maktabning Huquqshunoslik fani o'qituvchisi
+99899 555-92-08

Annotatsiya: yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda tasviriy san'atning o'rni va uning boshqa fanlar bilan aloqasi hamda huquqshunoslik fanini tushuntirishda rasmiy illyustratsiyalar foydalanish yuqori samara berishi haqida ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: san'at, tarbiya, fanlararo bog'liqlik, huquqshunoslik, huquqiy savodxonlik.

Bugungi kunda yurtimizda iqtidorli va iste'dodli yoshlar safi kengayib borayotganligi qalbimizda cheksiz faxr va iftixon tuyg'ularini uyg'otadi. Chunki ijodkor yoshlar kelajak poydevori, ularning bilim va tafakkuri, izlanuvchanligi natijasida yurtimiz rivoj topib, yuksalishiga sabab bo'ladi. "San'at va madaniyatdek kuch orqali inson qalbiga yo'l topish haqida so'z yuritar ekanmiz, hammamiz yaxshi tushunamizki, har qaysi iste'dod egasi o'ziga xos bir olam, shu sababli ijod ahliga qandaydir aql o'rgatish, eng asosiysi, ularni boshqarishga urinish mumkin emas. Lekin bu hayotda ularni birlashtiradigan, yangi ijodiy marralar sari ilhomlantiradigan muqaddas tushunchalar borki, ular Vatan va xalq manfaati, ezgulik va insoniylik tamoyillari bilan uzviy bog'liqidir. Agarki har qaysi ijodkor o'z asarlarida ana shu o'lmas g'oyalarni bosh maqsad qilib qo'ysa, ularni badiiy mahorat bilan ifoda eta olsa, hech shubhasiz, adabiyot ham, madaniyat va san'at ham tom ma'noda ma'naviy yuksalishga xizmat qilib, o'zining ijtimoiy vazifasini to'liq ado etishga erishgan bo'ladi". Istiqlolning dastlabki yillardayooq, davlatimiz ilk e'tiborni yoshlarga qaratib, har tomonlama etuk va barkamol bo'lib ulg'ayishlari uchun barcha shart-sharoitlar bilan birgalikda keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi. O'z navbatida barcha fanlar qatorida tasviriy san'atga ham alohida e'tibor qaratildi.

Tasviriy san'at – insonlarni ezguliklar olamiga etaklovchi ma'naviy vosita hisoblanadi. Insonning didi, tasavvuri va tuyg'ularini tarbiyalash bilan birga ichki hotirjamlik bag'ishlaydi. Ba'zan aql-zakovat ham anglashga ojizlik qiladigan tuyg'ularni uyg'otadi, junbushga keltiradi va tinchlantiradi. "Tasviriy san'at bilan shug'ullanish kishilarga estetik zavq bag'ishlaydi va ularning ruhiy dunyosini boyitadi. Tasviriy san'at insondagi intellektual, ma'naviy, xissiy va estetik ehtiyojlarni, o'zida mujassamlashtirgan badiiylikka bo'lgan eng yuksak ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi". Shu bilan birgalikda barcha fanlar ona tili – chiroysi va ifoladi yozish, fizika – rang xususiyatlari, kimyo – bo'yoqlar tarkibi, matematika – nisbatlarni aniqlash uchun hamda boshqa fanlar uchun o'zining alohida ahamiyatiga ega. Fanlarning bir-biriga o'zaro bog'liqligini bola anglasa, barcha fanlarni alohida qiziqish va qunt bilan o'rganadi. Bu fanlar qatorida huquqshunoslik fanining ham alohida o'rni bor. Kompozitsion tasvirlar orqali davlatimiz ramzları: bayroq, gerb va madhiyani ifodalovchi rasmiy kompozitsion ishlari (5-modda), Xalqimizni millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari ekanligini bildiruvchi (8-modda), tabiatni asrash, uni asrab avaylash (50-modda), Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga etgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majbur ekanligi (64-modda) kabi mavzularni rasmlar orqali mavzuli tarzda ko'rsatib berish mumki. Ayniqsa maktab bolalariga huquqiy savodxonlikni oshirish uchun rasmiy illyustratsiyalar chizish qiziqarliroq. Sababi ko'z bilan olingan informatsiya sodda bo'lganligi uchun tushunarli bo'ladi. Xulosa qilib aytish mumkinki, yuqori darajadagi tasviriykasbiy madaniyatga, ijtimoiy faoliyikka, mustaqil fikrlashga, o'z vazifalarini qiyinchiliksiz hal qila olish qobiliyatiga ega bo'lgan etuk mutaxassislarini tarbiyalash uchun bugungi kunda pedagog-o'qituvchilarimiz zamонавија yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishlari ta'lim-tarbiyaning sifat va samaradorligini oshirishning asosiy omili ekanligini, buni esa davr talab etayotganligini tushunib etishlari lozim.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: 2018 y.
2. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. T.: "Ma'naviyat". 2008 y.
3. T.Mahmudov, Ya.Olimov. O'zbekiston san'atida inson omili. T.: "G'.G'ulom" - 1988 y.



TASVIRIY SAN'AT VA UNING TARBIYADA TUTGAN O'RNI

Jumaboyev Nabi Pardaboyevich

Guliston davlat universiteti doktoranti,
nabijumaboyev@gmail.com, +998996421785

Qayumova Zarnigor Safar qizi

Guliston davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: tasviriy san'atning yoshlar tarbiyasidagi o'rni to'g'risida fikr yuritilgan. Mashhur rassomlarning qarashlari keltirilgan

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, rassom, taassurot, natura, ifodaviy vosita, rassom.

"Tasviriy san'at faqat tabiat bilan baxs qiladi, faqat u bilan musobaqa o'ynaydi" – Leonardo da Vinchi. Bu so'zlarda tasviriy san'atnini tabiatga qiyoslagan. Ha to'g'ri tasviriy san'atning yo'naliishlari kopdir, lekin ularning bitta jumlesi bu – tabiatdir. To'g'ri biz ko'rib turgan barcha narsalar, u kim, u qaysi jonzot, qayer bo'lishidan qat'iy nazar, uning ichki dunyosi huddi tabiatda namoyon boladi. Insoniyat tug'ilgandan to voyaga yetar ekan bu oraliqda unung dunyoqarashi, gapirishlari, his tuyg'ulari, vatanga bolgan muhabbat, vatanni sevish va o'qituvchilar, yaqin kishilari tomonidan tarbiyalanadi. Biz o'quvchilarga ham shunday ruhda ta'lim ham tarbiya ham berishimiz mumkin. Maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilaridan to yuqori sinf o'quvchilar o'quv dasturini yanada yangilashimiz uni qiziqarli va na'munali darajada sifatli dasturga aylantirishimiz mumkin. Tasviriy san'at o'quv fani umumiyo o'rtta ta'lim fanlar ichida ma'naviy sog'lom avlod tarbiyasi masalasini ijobjiy hal etishda keng imkoniyatga ega. Tasviriy san'at darslarida san'at va san'atkor olami, san'atning ijtimoiy vazifasi va o'ziga xos xususiyati, uning tasviriy ifodaviy vositalarini o'rganib borish orqali o'quvchilar atrof muhit, tasviriy, amaliy san'at va me'morchilikdagi go'zallikni, devoriy miniaturalardagi nafislik, nafosatni ko'ra bilish, uni qadrlash va muhofaza qilishni o'rganib boradilar. O'quv fanning bosh maqsadi o'quvchilarda estetik madaniyatni va badiiy tafakkur tushuniladi. Tasviriysovodxonlik esa tasviriy san'atning barcha turlaridan y'ani rangtasvir amaliy san'at, grafika, haykaltaroshlik o'ziga xos tasviriy usullardan ifodaviy vositalardan amaliy – ijodiy faoliyatda to'g'ri foydalana olishni nazarda tutadi. Masalan: boshlang'ich ta'limni olsak, boshlang'ich ta'limda o'qiydigan, ta'lim oladigan o'quvchilar uchun badiiy ijodiy qobiliyatlarini o'stirish hamda kuzatish asosida go'zallikni ko'ra bilish, uni taasurotlarini boyitish. Bolalarda ko'rish, chamlash, qobiliyatlarini rang bilishi, rangni hosil qilish, fazoviy fikrlash kompazitsiyalari kabi xususiyatlarini rivojlantirish. Masalan: olmani natura sifatida joylashtirsak, undagi holat rangining qizil, sariq yoki turli xil rangda mujassamlashganini, soyasi, fazoviy holatini o'rgatish, olmani mazaliligini uning qarsildoqliliginini his qilishi kerakligini o'quvchiga o'rgatish. Tasviriy san'atning nazariyasini muntazam o'rganish, ushbu ta'limni muvaffaqiyatl o'zlashtirishning asosi hisoblanadi. Rangtasvir qonun-qoidalarni puxta egallagan o'quvchilargina amaliy ijodda samarali shug'ullanishi mumkin. "Kimda-kim ilmni amaliyotsiz tasavvur etsa – u bamisol suzishga eshkaksiz chiqayotgan qayiq haydovchisidir va u hech qachon qayerga ketayotganligiga to'la ishonch hosil qila olmaydi"- deya takidlagan Leonardo da Vinchi. Ayniqsa rangtasvir sohasida amaliyot hamisha kuchli nazariyot bilan bog'liq holda amalga oshirishi zarur, bularsiz hech narsaga erishib bolmaydi. Rangtasvir metodikasini oldingi davrlarda unchalik ahamiyat kasb etmagan. Hozirgi davrga kelib unung turli xildagi texnikaviy usullari oylab topilmoqda va fanga kiritilmoqda. Ularda asosan yorug' soya, havo prespektivasi mukammal ochib berilgan. Taniqli rassomlar doimo so'zlarida shunday g'oyani ilgari surganlar. Faqatgina munosabatlar bilan ishlab rang tasvir sirlarini qoidali, savodli egallash mumkin. "Rassom va pedagog N.P.Krimov shunday deganlar: Rangtasvir munosabatlarining mosligi bilan paydo boladi. Agar rangtasvirda munosabatlar notog'ri bolsa, eng toza va yorqin ranglar ham chalkash va tushunarsiz bolib korinadi". Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda ko'plab ota-onalar farzandlarini tasviriy san'at to'garaklariga, ixtisoslashtirilgan maktablarga berishi odat tusiga kirgan. Bu narsa bolaning rassom bolib yetishishi uchun emas aksincha bolaning dunyoqarashini tabiat bag'rida uni go'zalligini his etgan holda oquvchinung xalq amaliy san'ati tasviriy san'at bilan tanishtirish orqali o'quvchilarda badiiy estetik didni o'stirish, taassurotlarni hayotga tadbiq etishni o'rganishi kelajakda vatanimizga muhabbat ruhida kamol toptirish , vatanimiz bolmish O'zbekiston deya atalur hur o'lkani jahonga namoyon qilish. Chunki tasviriy



san'atga qalban bog'langan bolada, avvalo eng gozal fazilatlar shakllanadi, bola katta va bebahoy boylikka – ma'naviy xazinaga yaqinlashayotganini his etadi. San'atga oshno qalblardan hech qachon yomonlik chiqmaydi. Ular faqat va faqat atrofga ijobiy tuyg'ular, ezgu niyatlar, bunyodkor g'oyalarni tarqatishga harakat qilishadi.

Foydalaniman adabiyotlar

1. S.Abdirasilov, N.Tolipov, N.Orordova. Rangtasvir. T.: "O'zbekiston" 2006 y.
2. Sh.Qobilov. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. T.: Fan va texnologiya. 2014 y.
3. R.Xasanov. Tasviriy san'at asoslari. T.: 2008 y.



MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA TASVIRIY SAN'ATNING ROLI

Jumaboyev Nabi Pardaboyevich

Guliston davlat universiteti doktoranti,
nabijumaboyev@gmail.com, +998996421785

Abdusalomova Shoxsanam Nemat qizi

Guliston davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: maktabgacha ta'lurma tasviriy faoliyat mashg'ulotlari orqali bolalarda atrofdagi narsa va hodisalarga estetik munosabat bildirish, go'zallikka dahldor narsalarni chizish, yasashda tasviriy san'atning roli haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, rasm, mahorat, tevarak-atrof, estetik qobiliyat, estetik tarbiya.

Maktabgacha ta'lurma vazifasi bolalarni xalqimizning boy milliy, ma'naviy, ma'rifiy, madaniy hamda axloqiy jihatdan tayyorlashdan iborat. Maktabgacha yoshdagি bolalarda bilim olish, o'qishga yo'naltirish, o'qishga moyilliklarini shakllantirib ularning ta'lum ya'ni boshlang'ich maktablariga tayyorlash sosiy maqsadlardan biri tasviriy san'at orqali bolalarga, ulardagи qobiliyati va imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish, o'zlaridagi qobiliyatirini aniqlab, ularni to'g'ri shakllantirish va yuzaga chiqarishdir. Maktabgacha ta'lum muassasalarida olib boriladigan tasviriy faoliyat mashg'ulotlari estetik tarbiyaning dastlabki bosqichi sifatida bolalarni aqliy rivojlantirish va ularning badiiy didini tarbiyalash, ijodkorlik qobiliyatini o'stirish, tevarak-atrofdagi va tabiatdagi go'zalliklarni ko'ra bilish, undan zavqlanish va unga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lismi, va nihoyat ijod qobiliyatlarini to'g'ri shakllangan bo'lising pedagogik kafolatidir. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarining maqsadi bolalarda atrofdagi narsa va hodisalarga estetik munosabat bildirish, go'zallikka dahldor narsalarni yaratish (chizish, yasash) ning elementlar asoslarini shakllantirishdan iborat.

Tasviriy san'atning o'ziga xos murakkabliklarini tushuntirib, tasviriy san'atning nozik qirralarini maktabgacha yoshdagи bolalarga ularish mahoratiga ega bo'la oladigan, bolalarni tasviriy san'atga qiziqtira oladigan tarbiyachilarini etishtirib chiqarish vazifasi oldinda turibdi. Tasviriy faoliyat vositalarida bolalarning estetik qobiliyatlarini shakllantirishda tarbiyachining o'rni beqiyos. U chuqur bilim va yuqori malakaga ega bo'lisi, buning uchun muntazam ravishda o'z ustida ishlashi, o'zining ilmiy hamda nazariy saviyasini tinimsiz ko'tarishi, ilg'or tajribalarga tayanishi kerak. Tasviriy san'at fani bo'yicha maktabgacha ta'lum muassasasi dasturi va muktabda tasviriy san'at turi bolalarga tevarak atrofda, o'zining yonidagi bo'layotgan jarayonlar va voqealarga nisbatan, pozitiv va estetik munosabatlarni tarbiyalash ijodiy qobiliyat va o'zlarini qarashlari bo'yicha tasvirlashlarini rivojlantirishni ko'zda tutadi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlarda bolalar asosan amaliy ish bajaradilar. Masalan, o'sha o'zlar chizgan rasmga rasmga qarab hikoya qilish orqali bolada nutq shakllanadi, dunyoqarashi o'sadi. O'zining erkin fikrini etkazib bera olish xislatlari mustahkamlanadi. Tasviriy san'at faoliyati bolalarni axloqiy jihatdan ham tarbiyalaydi. Bolalar rasmlari orqali o'z hayotida, jamiyatda bo'layotgan voqeа va hodisalarni aks ettiradilar, o'zlar ishlagan ishlaridan mammun bo'ladilar va hayajonlari uyg'onadi. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatlari: boshlagan ishini oxirigacha etkazish alohida maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni engish, o'rtoqlariga va kattalarga yordamlashish, atrof-muhitga e'tiborli bo'lismi, uy hayvonlariga ozor bermaslik, daraxtlar shoxlarini sindirmaslik va h.k. ijobjiy xususiyatlar tarbiyalanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, har bir millat, elat o'z qadriyatları, tarixiy an'anaları asosida farzandini ulg'aytiradi. Milliy dunyoqarash, odatlar, an'analar, qadriyatlar esa bu qoidalarni to'ldiradi va ularni mukammallashtiradi. Tarbiyaning ijtimoiy vazifasi kishilarning bilim, malaka, ko'nikmalarida aks etgan mehnat, bilim tajribalarini avloddan-avlodga yetkazishdir. Bu borada tasviriy san'atning o'rni va xismati beqiyosdir.

Foydalilaniganabiyotlar:

1. Takomillashtirilgan "Bolajonlar" tayanch dasturi. T.: 2016 y.
2. Maktabgacha ta'lumda qo'yiladigan davlat talablari. T.: 2017 y.
3. "Bilimdon" dasturi. T.: 2014 y.
4. Quloqli "qulqosiz" bola. Ilmiy-ommabop nashr. To'plovchi va tarjimon M.Rixsibekova. T.: "Yangi asr avlod'i", 2017 y.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 26-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(14-қисм)

**Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев**

Эълон қилиш муддати: 31.03.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000